GLABALLASHUV SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

To‘rabekova Aziza Mirzabek qizi
Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti
azizatorabekova4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xaql ta'limi sohasidagi islohotlarning amaldagi natijasi sifatida glaballashuv sharoitida boshlang‘ich ta'limdagi zamonaviy yondashuvlar: kompetensiyaviy yondashuv, kognitiv va pragmatik yondashuvlar haqida xorijlik olimlarning qarashlari nazariy tahlil qilingan va mazkur yondashuvlarning avzalliklari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: yondashuv, kompetensiya, kognitiv yondashuv, pragmatik yondashuv, boshlang‘ich ta'lim, bilim, ko‘nikma, malaka.

Annotation. This article presents a theoretical analysis of foreign scholars' perspectives on modern approaches to primary education in the context of globalization. It examines competency-based, cognitive, and pragmatic approaches, which are considered practical outcomes of public education reforms. The advantages of these approaches are elucidated.

Key words: approach, competence, cognitive approach, pragmatic approach, primary education, knowledge, skills, qualifications.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi, xususan, boshlang‘ich ta’lim muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy dunyoda ta’limning mazmuni, usullari va shakllari tez sur’atlar bilan o‘zgarib bormoqda. Globallashuv ta’lim tizimini yangi yondashuvlar bilan boyitib, turli milliy ta’lim tizimlari o‘rtasida tajriba almashinuvini tezlashtirdi. O‘zbekiston ham o‘z navbatida boshlang‘ich ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish orqali global ta’lim tizimiga moslashishga intilmoqda. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, avvalo, ta’lim jarayonida bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qancha muhim qarorlar va farmonlar imzolangan bo‘lib, ular boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, innovatsion uslublarni joriy etish va pedagoglarning malakasini oshirishda asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda. Shu o‘rinda 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Prezident farmoni[1] doirasida, O‘zbekistonning xalqaro standartlarga mos keluvchi ta’lim tizimini yaratish rejalashtirilgan. Bu hujjatga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim tizimida xalqaro tajriba va innovatsion pedagogik yondashuvlar joriy etilishi belgilangan. Ushbu konsepsiya boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish va global miqyosda raqobatbardosh bilim olishga asos bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 3-fevraldagi “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-22-sonli Farmoyishida[2] ta’lim sohasini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, unda ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni

joriy etish, o‘qituvchilar uchun qulay ish sharoitlarini yaratish va ularning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu farmon globallashuv sharoitida raqobatbardosh bilim olish uchun muhim bosqich bo‘lib, xalq ta’limi tizimini takomillashtirishni maqsad qilgan. Shuningdek, 11-may 2022-yildagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmonida[3] esa boshlang‘ich ta’lim mazmunini yangilash orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning keng dunyoqarashga ega bo‘lishiga ko‘maklashmoqda. Globallashuv davrida bunday yangiliklar milliy ta'lim tizimining zamonaviy texnologiya va yondashuvlarga moslashuvini kuchaytiradi, bolalarga yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashda keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, globallashuv sharoitida O‘zbekiston boshlang‘ich ta'lim tizimini xalqaro tajribalar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan boyitishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Shu o‘rinda davlat rahbari tomonidan imzolangan qaror va farmonlar yangi ta’lim yondashuvlari, o‘quv jarayonida innovatsion uslublarni qo‘llash hamda ta’lim sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib, zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang‘ich ta’limda **kompetensiyali yondashuv** – bu o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berishdan ko‘ra, ularga amaliy ko‘nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan ta’lim berish usuli hisoblanadi. Bu yondashuvda o‘quvchilarning bilimlarini hayotda qo‘llash, muammolarni hal qilish, o‘z fikrini aniq va to‘g‘ri ifoda qilish, jamoada ishlash kabi asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga urg‘u beriladi. Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyali yondashuv o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi qator ko‘nikmalarni qamrab oladi. Kompetensiyaviy ta’limga asoslangan standartlarni tahlil qilishdan oldin kompetensiyaviy ta’limning mohiyatini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Pedagogik terminlar lug‘atida “kompetensiya” so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “Ma’lum bir vazifani adekvat tarzda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmui hamda tajriba” [4].

Kompetensiya (lotincha ***“competo” – erishypman, munosibman, loyiqman***) – u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar; shaxsning biron-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi [5].

Kompetensiyali yondashuvning asosiy maqsadlari:

1. **Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim**: o‘quvchilarga faqatgina nazariy bilimlarni berish emas, balki ularni kundalik hayotda, turli vaziyatlarda qo‘llay olishni o‘rgatishdir.

2. **Hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish**: o‘quvchilarga ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlash, muloqot qobiliyati, o‘zini boshqarish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirish.

3. O‘ziga ishonchni mustahkamlash: kompetensiyali yondashuv yordamida o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini kashf etishadi va ulardan samarali foydalanishni o‘rganishadi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Boshlang‘ich ta’limda **kognitiv yondashuv** – bu o‘quvchilarning bilish jarayonlariga asoslangan yondashuv bo‘lib, ularning diqqatini axborotni qabul qilish, qayta ishlash, esda saqlash va yangi bilimlarni anglab yetishga qaratadi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilim olish jarayonini faollashtirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Kognitivizm (lotincha *“cognoscrere”* – “bilmoq” so‘zidan olingan) – psixologiya va pedagogikadagi yetakchi nazariyalardan biri. Ushbu nazariya tarafdorlari fikricha, inson miyasi “qora quti” va o‘rganish jarayonini samarali tashkil qilish uchun uning uchida qanday jarayonlar sodir bo‘lishini tushunish kerak. Bilim bu – “sxema”la yig‘indisi [6].

Kognitiv yondashuv quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bilish jarayonlarini rivojlantirish.

2. **Bilimlarni shakllantirish va qo‘llash.**
3. **Metakognitiv ko‘nikmalar.**
4. **Qiziqish va ichki motivatsiyani oshirish.**
5. **O‘yin va amaliy mashg‘ulotlar.**

Kognitiv yondashuvning afzalliklari:

- o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;
- o‘z bilimini boshqarish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi;
- yangi bilimlarni amalda qo‘llash imkonini beradi.

Kognitiv yondashuv boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning aqliy salohiyatini oshirishga, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishga va ularni kelajakdagi ta’lim jarayonlariga tayyorlashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda **pragmatik yondashuv** – bu bilimlarni hayotda qo‘llashga yo‘naltirilgan, amaliy va foydali ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim usulidir. Pragmatik yondashuvda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni real hayotda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish maqsad qilingan. Bu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonidagi asosiy **maqsad** – o‘quvchilarga hayotiy vaziyatlarda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni o‘rgatishdir.

Boshlang‘ich ta’limda pragmatik yondashuvlarning asosiy xususiyatlari:

1. Hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
2. **Amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish.**
3. **Muammoli ta’lim va loyiha asosidagi ta’lim.**
4. **Ta’limni qiziqarli va mazmunli qilish.**
5. **Shaxsiy tajriba va kuzatuvlarga asoslangan o‘qitish.**

Yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqib, ta’limda pragmatik yondashuvning afzalliklari quyidagilrdan iborat deyishimiz mumkin:

- **Amaliy ko‘nikmalar:** bu yondashuv o‘quvchilarga bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatadi.
- **Ijodiy va tanqidiy fikrlash:** o‘quvchilarning muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.
- **O‘ziga ishonchni oshiradi:** bolalar bilimlarni real hayotda qo‘llashni o‘rganish orqali o‘ziga ishonch hosil qiladi va o‘z mustaqilligini oshiradi.
- **Kuchli motivatsiya:** real hayot bilan bog‘liq mavzular orqali o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiya shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy, kognitiv va pragmatik yondashuvlarning qo‘llanilishi zamonaviy ta’lim jarayonini yanada samarali va amaliy qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarning har biri o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim olish jarayonini chuqurlashtirish va ularni real hayotda qo‘llash imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu jarayonda ularning individual imkoniyatlari, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bu yondashuv boshlang‘ich ta’limni shunchaki bilim olish jarayoni sifatida emas, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni sifatida qaraydi va bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, kognitiv yondashuv esa o‘quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bilimlarni chuqur anglash va tahlil qilishni ta’minlaydi. Kognitiv yondashuv orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, axborotni qayta ishlash va o‘z bilimlarini mustahkamlash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu yondashuv bilimlarning ichki mazmunini anglashni chuqurlashtiradi va o‘quvchilarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Pragmatik yondashuv o‘quvchilarga o‘rganilgan bilimlarni real hayotda qo‘llash imkonini beradi. Bu yondashuv bilimlarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib, bolalarni real muammolarni hal qilishga tayyorlaydi va ularning shaxsiy tajribalarini boyitishga yordam beradi. Pragmatik yondashuv boshlang‘ich ta’limni hayot bilan bog‘lab, o‘quvchilarni amaliy faoliyatga undaydi. Shunday qilib, ushbu uch yondashuvning uyg‘unligi boshlang‘ich ta'lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarning ko‘p qirrali rivojlanishini ta'minlab, ularning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy qobiliyatlarini oshiradi. Zamonaviy boshlang‘ich ta'limda ushbu yondashuvlarni integratsiyalash orqali o‘quvchilarning mustaqil, kreativ va hayotiy ko‘nikmalar bilan boyitilgan shaxs sifatida shakllanishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Prezident farmoni. 29.04.2019.

2. “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-22-sonli Farmoyish. 03.02.2022.

3. “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmoni. 11.05.2022.

4. Collins III J. W. and O‘Brien N. P. (Eds). The Greenwood Dictionary of Education. 2nd Edition. Santa Barbara: “Greenwood”. 2011.

5. “Pedagogika” ensiklopediyasi, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, Toshkent, 2015.

6. Sxema (yunoncha “schema” – “shakl” so‘zidan) – insonda mavjud bo‘lgan dunyoqarash, bilimlar, tushunchalar, xatti-harakatlar yig‘indisi.